O‘ZBEKISTON ARXEOLOGIYA ILM-FANI RIVOJIDA YAHYO G‘ULOMOVNING O‘RNI VA ILMIY MEROSI

Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli o‘zbek olimi Yahyo G‘ulomovning ilmiy faoliyati, uning O‘zbekistonda arxeologiya va tarix fanlari rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil etiladi. Shuningdek, olimning moddiy-madaniy merosni o‘rganish, saqlash va kelajak avlodga yetkazish yo‘lidagi xizmatlari, ilmiy jasorati va vatanparvarlik fazilatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Arxeologiya instituti, Oqmachit mahallasi, moddiy va madaniy obidalarini tadqiq qilish, Arxitektura instituti, “O‘zkomstaris”, sug‘orilish tarixi, Afrosiyob qo‘rg‘oni, O‘zbek Davlat Pedagogika akademiyasi, “Namuna” nomli maktab-internat, sardobalar, moddiy madaniyat obidalari.

O‘zbek halqining qadimgi boy moddiy va madaniy obidalarini tadqiq qilishda va ularni sinchiklab o‘rganishda o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan, mashhur tarixchi-arxeolog olim, O‘z FA akademigi, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi Yahyo G‘ulomov haqida fikr yuritmoqchimiz.

Ibratli hayoti, serqirra, sermahsul faoliyati bilan hayotlik paytidayoq (aytish mumkinki ilmiy faoliyatining dastlabki davrlaridanoq ustozlarining ishonchiga kira olgani) [1, 23-b] halqimiz nazariga tushgan, bugungi kunda esa ilmiy doiralarda nomi hamisha hurmat bilan tilga olinadigan Yahyo G‘ulomov 1908-yili 1-mayda Toshkent shahrining Shayhontohur dahasidagi Oqmachit mahallasida madrasa o‘qituvchisi oilasida dunyoga keldi. 1918-yilda eski shaharda tashkil etilgan “Namuna” nomli maktab-internatda o‘qishga bordi. Yahyo G‘ulomovda moddiy madaniyat obidalariga nisbatan qiziqish hali u maktab-internatda o‘qib yurgan yoshlik yillaridayoq paydo bo‘lgan edi [2, 10-b].

Maktab tahsilini yakunlagan Yahyo G‘ulomov o‘qishni davom ettirish maqsadida Samarqandga yo‘l oladi. 1927-1930 yillarda Yahyo G‘ulomov O‘zbek Davlat Pedagogika akademiyasi ijtimoiy-iqtisodiy bo‘limida o‘qiydi. Samarqandda ochilgan bu dorilfununda o‘sha davrning mashhur olimlari Po‘lat Soliev, Musa Saidjonov, Vasiliy Vyatkin va boshqalarning ma’ruza va suhbatlarini tingladi, saboq oldi. Yahyo G‘ulomovning ilmga, xususan arxeologiyaga bo‘lgan qiziqishini sezgan V.Vyatkin uni arxeologiyaga tortish va dala ishlari metodi bilan tanishtirish maqsadida o‘zi olib borayotgan Afrosiyobdagi qazish ishlariga olib chiqa boshlaydi [3].

1933-yildan Yahyo G‘ulomovning ilmiy faoliyati boshlandi. Sakkiz yil davomida tarixiy va san’at yodgorliklarini aniqlash Respublika komiteti (“O‘zkomstaris”)da ilmiy xodim hamda ilmiy kotib lavozimlarida ishladi.

Mazkur maqolamizda domla Yahyo G‘ulomovning arxeologiyaga oid kashfiyotlari, shuningdek, tarix fani rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan biroz boshqa jabhalardagi xizmatlari, olimlik, fan uchun fidoyilik, vatanparvarlik, odamiylik kabi fazilatlari haqida so‘z yuritmoqchimiz.

“O‘zkomstaris”da ishlab yurgan vaqtlarida va dastlabki qatnashgan arxeologik ekspeditsiyalarida to‘plagan materiallari asosida 1930-yillardayoq yurtimizning boy moddiy-ma’naviy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish bo‘yicha juda katta ishlarga bosh-qosh bo‘ladilar [4, 3-b].

O‘sha vaqtda Yahyo G‘ulomov boy moddiy madaniyat yodgorliklarimizni saqlab qolish va o‘rganish uchun “O‘zkomstaris”ni kuchi yetmayotganligi (yolg‘izlik qilayotganligi) sababli, mahalliy hokimiyat idoralarini bu ishlarda yordam berishga undaydi. 30-yillarda nafaqat O‘zbekiston, balki butun sobiq Ittifoqda mamlakatni sanoatlashtirilishi birinchi o‘ringa qo‘yilgan vaqtda, moddiy yodgorliklarni o‘rganish va saqlab qolish bo‘yicha 1934-yil “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 30-iyul №174 sonida “Tegajag‘lik” deb nomlangan maqola yozadi [5]. Ushbu maqolasida Yahyo G‘ulomov Xiva shahridagi arxitektura va tarixiy yodgorliklar, Shahrisabzdagi dunyoga mashhur Oqsaroy me’moriy obidasi, Buxoro viloyatidagi ko‘plab sardobalar, Termiz

yaqinidagi XII - XV asrlarga taaluqli mashhur Sulton Saodat maqbaralar guruhini, Qirqqiz qal’ani, Xoja Hakim Termiziy maqbarasini, hozirgi Navoiy viloyatidagi (viloyat 1982-yil tuzilgan) XII asrga taaluqli Raboti Malik yodgorligi va boshqa ko‘plab moddiy-madaniy yodgorliklarimizni ahvoli, ularni qarovsiz holati va odamlar tamonidan vayron qilinishi haqida to‘xtalib o‘tadi. Maqolada tarixiy yodgorliklarga, ularning saqlanishi, o‘rganilishi yo‘lida yordam berish emas, aksincha, ularni yemirish, bekorchi narsalar uchun (o‘z shaxsiy ehtiyojlari uchun) turli bahonalar bilan buzib tashlash holatlari davom etayotgani haqida ochiqchasiga fikr bildiradi [5].

Yahyo G‘ulomov ilmiy faoliyatining yana bir muhim jihati tarixiy, moddiy-ma’naviy merosimizni asrab-avaylash yo‘lida haqiqatga tik boqqanligidir. Yahyo G‘ulomovning bu xislati haqida O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov 1998-yil bir guruh tarixchi olimlar bilan bo‘lgan uchrashuvda “Yahyo G‘ulomov dovyurak, qo‘rqmas, o‘z mustaqil fikriga ega, kerak bo‘lsa, yuqori lavozim egasiga yoqmaydigan to‘g‘ri gapni dadil ayta oladigan olim edi” [6, 28-b] deb baho bergan edilar. Darhaqiqat, butun mamlakatda 30-yilarda ateistik bir siyosat avj olgan vaqtda, boy tarixiy, diniy, madaniy merosimiz bo‘lmish yodgorliklar, madrasa va masjidlarni asrab-avaylash yo‘lida keng ko‘lamli ishlarga bosh-qosh bo‘ldilar [7, 20-22-bb]. Madrasa va masjidlar, sardoba va boshqa tarixiy yodgorliklarni saqlash ishlarini Ya. G‘ulomov “ularni saqlashdan maqsad – ba’zi nodon kishilar tushunganidek “eskiparastlik”, yoki “diniy narsalarni ideallashtirish” emas, balki, chuqur madaniy bir ishdir” deya izohlaydi [8, 23-25-bb].

1970-yilda Fanlar Akademiyasi tarkibida arxeologiya ilmiy tadqiqot instituti ochiladigan bo‘ldi. Bu ilmiy tadqiqot instituti ochilishida ham Yahyo G‘ulomov va akademik I. Mo‘minov xizmatlari katta bo‘ladi. Ammo mazkur ilmiy tadqiqot institutining Toshkentda emas, Samarqandda ochilishini Yahyo G‘ulomov qo‘llab-quvvatlamaydi. Arxeologiya instituti raisligiga Yahyo G‘ulomov nomzodini ko‘rsatishganda Ya.G‘ulomov rozi bo‘lmaydi. Bunday holatlarga bevosita guvoh bo‘lgan shogirdlaridan biri akademik A.Asqarov keyinchalik xotiralarida qiziq bir voqeani eslatib o‘tadi.

Arxeologiya instituti ochilishiga bag‘ishlangan hay’at yig‘ilishida “O‘zbekistonning har bir viloyati Samarqanddek qadimiy yodgorliklarga boydir, buni biz arxeologlar yaxshi bilamiz. Arxeologiya yodgorliklari bilan arxitektura obidalari o‘rtasidagi farqni ham yaxshi bilamiz. Ochilayotgan institut esa Arxitektura instituti emas, balki Arxeologiya institutidir” deya Yahyo G‘ulomov o‘z fikrini bayon etdilar [9]. Chunki arxeologiya institutining Samarqandda ochilishi o‘sha vaqtda bu shaharda etarlicha moddiy-texnik baza yo‘qligi bilan bir qatorda, deyarli barcha ilmiy tadqiqot institutlari, akademiyalar, kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va ilmiy lobaratoriyalarning Toshkentda joylashganligi uchun ham Yahyo G‘ulomov bunga qarshilik qilgan edilar. Bu haqda keyinchalik Yahyo G‘ulomov “О положение археологов в городе Самарканде” deb nomlangan maqolasida ham alam bilan esga oladi [5].

Xulosa qilib aytganda Yahyo G‘ulomov nafaqat tarix va arxeologiya fanlari, balki, manbashunoslik, muzeyshunoslik, numizmatika, o‘zbek tili va adabiyoti, folklorshunoslik, tabiiy fanlar sohalarida ham shogirdlariga saxiylik bilan ta’lim berar ekan, bir so‘zni qayta-qayta takrorlardi. Ba’zan kichik maqolalar g‘oyasi va fanga kiritilgan yangiligi jihatidan ayrim yirik asarlarga teng bo‘lishi mumkin der edilar [10, 117-121-bb].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Германов В.А. Профессор Пулат Салиев и его время – Ташкент: Фан, 2002. – С. 23.
2. Муҳаммаджонов А. Яҳё Ғуломовни хотирлаб (Ўқувчиларга устозимиз ҳақида). – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 20.
3. Ғуломов Я. Вяткин ҳақида хотиралар. // Ўзбекистон ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1969, №11. – Б. 49.
4. Jahja “Devori ko‘ndalang” Qizil O‘zbekiston gazetasi 1934-yil 18-iyul №164; “Sardoba” Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1934-yil 24-iyul №169; “Tegajag‘lik” Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1934-yil 30-iyul №174.
5. Ўз РМДА. Я. Ғуломовнинг шахсий фонди рўйхат 2296, опис 1, жилд 99.
6. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 27.

7. O‘z R. FA Fundamental kutubxonasi. F-1, 2-L-ro‘yxat, 62-yig‘ma jild, 52 варақ (Протоколы заседаний Ученого Совета Истории и археологии АН УзССР. Копия Академия Наук СССР Института Востоковедения, Протоколь № 5, 16-апреля 1943 г.: Присудить тов. Я.Гулямова ученую степень кандидата исторических наук на оснавании защиту диссертации на тему: Хива и ее памятники.);

8. G‘ulamov Yahja. Tarixiy yodnomalar. // Sotsialistik fan va turmush. 1939. № 12, – B. 23-25 (Фундаментал кутубхона D-132).

9. Асқаров А. Илоҳим руҳингиз шод бўлсин // Я.Ғуломов таваллудининг 100 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент. 2008, – Б. 1-8.

10. Сабурова С. Мактаб яратган олим // Ижтимоий фикр ва инсон ҳуқуқлари. 1998, № 4. – Б. 117-121.